

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV QOBILYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xudaybergenova Guliston Xudiyarovna
Nukus DPI, Gumanitar va ijtimoiy fanlarni

masofadan o'qitish kafedrası assistent o'qituvchisi

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ
КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ

ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Худайбергенова Гулистон Худияровна

Нукусский государственный педагогический институт,
факультет гуманитарных и социальных наук, ассистент
преподаватель кафедры дистанционного обучения

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR
DEVELOPING CREATIVE ABILITIES IN
PRESCHOOL CHILDREN

Khudaybergenova Guliston Khudiyarovna

Nukus State Pedagogical Institute, Humanities and Social
Sciences, assistant teacher of the distance learning department



<https://orcid.org/0009-0006-7782-2813>

g_khudaybergenova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlash va kreativ qobilyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mulohazalar keltirilgan. Kreativ qobilyatning bolalar fikrlashiga ta'siri va uning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: bola, yosh, qobiliyat, kreativ, qonun, ko'nikma.

Abstract: This article presents reflections on the development of creative thinking and creative abilities in preschool children. We are talking about the influence of creative abilities on children's thinking and its significance.

Key words: child, age, ability, creativity, law, skill.

Аннотация: В этой статье приведены соображения, направленные на развитие креативного мышления и креативных способностей у детей дошкольного возраста. Речь идет о влиянии креативных способностей на мышление детей и их значении.

Ключевые слова: ребенок, возраст, способность, креатив, закон, навык.

Kirish. Yosh avlod ongida ilm asoslariga nisbatan qiziqish uyg'otish bugungi ta'lim va tarbiya sohalarining asosiy vazifasiga aylanib bormoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan bu masalada bir qancha qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish borasida

alohida to'xtalib o'tganlar. Shuning bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim beruvchi kadrlarning tajriba va ko'nikmalarini oshirish maqsadida Maktabgacha ta'lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi

yondashuvlarni joriy etish¹ borasidagi taklif va mulohazalarini ayni shu qarorida belgilab ketgan.

Azal-azaldan bizning xalqimiz bolajon xalq bo'lgan. Bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ham alohida ahamiyatga ega millatlar sirasiga kirgan. IX-X asrlarda yashagan mutafakkirlarimiz bola tarbiyasiga aloqador bir qancha asarlar yozishgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino va Imom Al-Buxoriy va yana bir qancha olimlar.

Maktabgacha ta'lim muassasasining vazifalari qatoriga bolalarning jismoniy, ruhiy va aqliy salomatligini ta'minlash ham kiradi. Bu borada bolalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy o'rinda turadi. Yuqorida nomini keltirgan olimlarimiz aqliy tarbiya haqida bir qancha fikrlarini o'z asarlarida keltirib o'tganlar: Beruniy inson kamolotida uch narsaning muhimligini ta'kidlaydi, bu irsiyat, muhit va tarbiyadir. Ibn Sino esa kamolotga erishishning birinchi bosqichini bilim olish deb baholaydi va bolalarni doim bilim olishga undaydi².

Bugungi davr uchun kreativ fikrlovchi va kreativ qobiliyatga ega shaxsni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Bu borada davlatimiz tomonidan dastur ham qabul qilingan. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish" vazifasi belgilandi.

Kreativlik deganda insonning yangi yangi g'oyalari ishlab chiqarishi, murakkab ko'rinib turgan, yechimi ochiq turgan muammolarga yechim topa bilishi, tavakkalchilik qobiliyati, o'zining kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashuvi hamda kasbiy yetukligi kabi harakatlari nazarda tutiladi³. Kreativlik (lot. ing. "sreate"–yaratish, "sreative" yaratuvchi ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

² Maktabgacha pedagogika. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. T.: 2019. – b -154.

³ file:///C:/Users/User/Downloads/3872-Article%20Text-9444-1-10-20211130.pdf

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi⁴.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi⁵.

Maktabgacha ta'limning samaradorligini oshirishda bevosita tarbiyachi pedagog xodimlarning ahamiyati katta. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kreativlik qobiliyati har bir shaxsda avvaldan mavjud bo'ladi. Shaxs yashayotgan muhit, olayotgan tarbiyasi bu qobiliyatni yuzaga chiqarishi yoki butunlay yo'q qilishi mumkin.

Kreativ qobiliyatga ega shaxsni tarbiyalash uchun shunday ruhga ega tarbiyachilar bo'lishi zarur. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi mashg'ulotlarni tashkil qilishda shaxsning o'zini-o'zi ijodiy faollashtirish tamoyiliga tayanishi lozim. Shaxs ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Har tomonlama fikrlash ta'lim oluvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi⁶.

Kreativlik – bu ijodkorlik. Demak, maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyachilar

⁴ SH.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz"- Toshkent," O'zbekiston", 2017-yil, 488 bet, 2-bet.

⁵ SH.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" – Toshkent, "O'zbekiston", 2017-yil, 592-255-bet. 10-bet.

⁶ Eshova S. D., Rajabova K. I. Organization of didactic games for preschoolers

tarbiyalanuvchilarga o‘yin mashg‘ulotlari va dars jarayonlarida ham ijod qilishlariga imkoniyat yaratib berishlari zarur. Doimiy tanqid va kamsitishlar, hamda cheklovlar boladagi qobiliyatlarning shakllanishiga va rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi. Shu boisdan tarbiyalanuvchilarga iloji boricha erkin bo‘lishlari uchun muhit yaratish kerak.

Bola irsiyati, asab tizimi, temperamenti va bilish jarayonlari xususiyatlari bilan birga, uning shaxsi shakllanayotgan ijtimoiy psixologik muhit xususiyatlari, atrofdagi kishilarning (oilalar, pedagoglar va boshqa) intellektual darajasi, ta‘lim-tarbiya jarayoni ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga qay darajada muvofiqligini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. Mutaxassislar fikricha, oilada bolaga mehri munosabat, ularda ijodiy iqtidor va tafakkurni rivojlantirish ijodiy, mustaqil fikrlash qobiliyati va tashabbuskorlikning shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘lim-tarbiya jarayonining yoshlarda tashabbuskorlikni rivojlantirishga mos bo‘lishi barcha ta‘lim muassasalarida (bog‘cha, maktab, litsey, kollej, universitet) ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchilar munosabatlarini demokratlashtirish, o‘qituvchining mavqeiga nisbatan qarashni, ta‘lim shakli, mazmuni va texnologiyalariga yangicha, ya‘ni innovatsion yondashuvni joriy qilishni taqozo etadi⁷.

Tomas Edison “Kreativlik – g‘ayriixtiyoriy jarayon”, – deydi. Kreativlik shaxs ega bo‘lgan bilimning ko‘pqirrali ekanida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, hayotiy muammolarni hal qilishda noodatiy shaklda yondasha olish, kutilmagan qarorlar qabul qila olishda namoyon bo‘ladi. Kreativ shaklda fikrlovchi bolalar boshqa bolalar ilg‘amagan jihatlarni anglashadi. Boshqalardan o‘zgacha shaklda muammoga yechim izlashadi. Har doim erkin shaklda fikr yuritishga harakat qilishadi.

Ba‘zi manbalarda kreativlik aqlning mevasi kabi ma‘lumotlarni uchratamiz. Haqiqatdan ham kreativlik o‘zgachalik, ya‘ni aql jarayonining yetukligidir. Bolalarda kreativlikni kuchaytirish uchun ularning har biriga tashabbuskorlikni taqdim qilish lozim. Aqliy rivojlanish fikrning tengligida voqealarni har xil bog‘lanishlarda, munosabatlarda

va umumiyashtirishlarda ko‘ra bilish bilan birgalikda rivojlanadi. Aqliy jarayonning rivojlanishi va tarbiyasi uning tashkil qilinishiga aloqador metod va usullar natijasida shakllanadi. Bu jarayonni shakllantiruvchi usullarga bog‘liq holda natija beradi.

Jahon pedagoglari kreativlik borasida bir qancha fikrlarini izohlab o‘tishgan. N.B. Goryunova, V.N. Drujinin tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda qo‘lga kiritilgan ma‘lumotga qaraganda, talaba tegishli murakkablik darajasiga ega ijodiy topshiriqni bajarish uchun zarur kognitiv zahiradan ortiq zahiraga ega bo‘lishi, ya‘ni faol va erkin kognitiv elementlarning katta yig‘indisiga egaligi ijodiy faoliyatda uning ko‘rsatkichlari boshqalarnikidan yuqori bo‘lishini ta‘minlovchi muhim psixologik omildir deya ta‘kidlanadi⁸. B.Klegning ijodiy tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha intensiv kursi muallifning kreativlik darajasiga yetish besh omil – madaniy muhitning ijobiy ta‘siri, maxsus metodikalardan unumli foydalanish, shaxs sifatida rivojlanish, mental energiya va yumor hissining yuqori darajada rivojlangan bo‘lishi lozimligi haqidagi tasavvurlariga asoslanadi⁹.

Tarbiyachilar bolalarga aqliy tarbiya berishda bolaning biologic imkoniyatlarini inobatga olishlari shart. Bolaning organizmi, uning yoshi va xarakteridan kelib chiqqan holda aqliy tarbiya va kreativ qobiliyatlarni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni tashkil qilishi, mashg‘ulotga mos usul va metodlar tanlashi lozim. Maktabgacha ta‘lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta‘limi shakllanadi. Bolalarda hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tashkil topadi. Kichik yoshdagi maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun esa bu jarayonni shakllantirish uchun ko‘rgazmali va obrazli namunalar muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘l bilan nutq, mantiqiy tafakkur rivojlantiriladi.

Kreativ qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha metodlar mavjud. Ammo ularning samaradorligi bilan bir qatorda kamchiliklari ham mavjud. Bu o‘rinda shuni alohida ta‘kidlash joizki bola shaxsiyatiga salbiy ta‘sir qilmaydigan va tarbiyaning maqsadiga teskari holda

⁷<https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9254/6503>

⁸Guilford J.P. Measurement of creativity // Explorations in creativity. – N.Y., 1967. – P. 101-119.

⁹ Guilford J.P. The nature of human intelligence. – N. Y., 1967. – R. 43-57

harakatlanmaydigan usullarni maktabgacha ta'lim muassasasida qo'llagan ma'qul. Tarbiyachi bu usullar orqali bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib topishiga imkon yaratadi. Kreativlik interfaol usullarning bir qismi kabidir.

Aksariyat o'qituvchilar ham aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Bu o'rinda xorijlik olim Patti Drapeau shunday maslahat beradi: "Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz-da, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir"¹⁰.

Maktabgacha ta'lim muassasasi davlatimiz ta'lim tizimining ilk qadami hisoblanadi. Shu boisdan bu sohaga alohida e'tibor qaratishimiz va ilmi, kreativ qobiliyatga ega bolalarni tarbiyalashga harakat qilishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI:

1. Maktabgacha pedagogika. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. T.: 2019. – b -154.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent," O'zbekiston", 2017-yil, 488 bet, 2-bet.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent, "O'zbekiston", 2017-yil,592-255-bet 10-bet.
4. Eshova S. D., Rajabova K. I. Organization of didactic games for preschoolers.
5. Guilford J.P. Measurement of creativity // Explorations in creativity. – N.Y., 1967. – P. 101-119.
6. Guilford J.P. The nature of human intelligence. – N.Y., 1967. – R. 43-57
7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovativethinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
8. <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9254/6503>
9. <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>



¹⁰ Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovativethinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.